O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHRI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 31-oktabr 773-14-0-Q/24 Toshkent shahar hokimligi

“Veolia Energy Tashkent” MChJ XK tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan yangi narxlar (tariflar)ni tasdiqlash to‘g‘risida

“2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining “Toshkent shahri issiqlik ta’minoti tizimini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish to‘g‘risida” 2021-yil 22-sentabrdagi 594-son va “Yoqilg‘i energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 15-sentabrdagi 475-son qarorlari, Bosh vazir o‘rinbosarining 2024-yil 17-yanvardagi 03/1-3480-son topshirig‘i hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining “Toshkent shahrida issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni ko‘rib chiqish to‘g‘risida” 2024-yil 12-sentabrdagi VI-107-147-14-0-K/24-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 29-iyuldagi 05/53-4-15684-son, Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 8-avgustdagi 01-3/2456-son xulosasiga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining “Toshkent shahrida issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni ko‘rib chiqish to‘g‘risida” 2024-yil 12-sentabrdagi VI-107-147-14-0-K/24-son qarori bilan “Veolia Energy Tashkent” MChJ XK tomonidan ko‘rsatiladigan markazlashgan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun narx (tarif) aholi uchun QQSsiz 121 617 so‘m/Gkal va boshqa ulgurji tashkilotlarga QQSsiz 244 497 so‘m/Gkal miqdorida narx (tarif)lar qo‘llanilishi ma’qullanganligi inobatga olinsin.

2. “Veolia Energy Tashkent” MChJ XK tomonidan ko‘rsatiladigan markazlashgan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun quyidagi narx (tarif)lar tasdiqlansin:

tartibga solinadigan bazaviy narx (tarif) va byudjet tashkilotlari tarifi amaldagi darajasida (mos ravishda QQSsiz 664 465 so‘m/Gkal va 801 963 so‘m/Gkal);

aholi uchun 121 617 so‘m/Gkal (QQSsiz);

boshqa ulgurji tashkilotlarga 244 497 so‘m/Gkal (QQSsiz).

3. Toshkent shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Xaydarov), Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ganiyev):

har yili Toshkent shahar mahalliy byudjeti parametrlarini shakllantirishda aholiga issiqlik energiyasi va issiq suvga pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararlarni qoplash va investitsion xarajatlarni qoplash uchun zarur subsidiya mablag‘larini nazarda tutsin;

aholiga issiqlik ta’minoti xizmatlari bo‘yicha pasaytirilgan tariflar qo‘llanilishi natijasida yuzaga keladigan zararlar va investitsion xarajatlarga asoslantirilgan hisob-kitoblarga muvofiq, Toshkent shahar mahalliy byudjeti hisobidan har oyda subsidiyalar ajratish orqali qoplab berilsin.

Bunda, subsidiya mablag‘lari “Veolia Energy Tashkent” MChJ XK va Toshkent shahar Davlat-xususiy sheriklik bo‘limi tomonidan taqdim qilinadigan hisob-kitoblarga ko‘ra o‘zgarmas, o‘zgaruvchan xarajatlar hamda investitsion xarajatlarga bo‘lingan holda moliyalashtirib berilishi ko‘zda tutilsin.

4. Toshkent shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (B. Xaydarov), Davlat-xususiy sheriklik bo‘limi (J.Isroilov) loyiha bo‘yicha ishlarni tashkil etish, jamg‘arma mablag‘larini boshqarish va hisobini yuritish hamda bitimga davlat sherigining to‘liq va so‘zsiz amal qilishini ta’minlash, xususiy sherikning majburiyatlari ijrosi monitoringini olib borish vazifalari yuklansin.

5. Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari (A.Xen), Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati (G.Kasimova) mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.tashkent.uz veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Toshkent shahar hokimining birinchi o‘rinbosari B.Xaydarov zimmasiga yuklansin.

Toshkent shahar hokimi **Sh.Umurzakov**